

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yaqin-yaqin zamon-da, go'zal vodiy tomonda bir tepalik: u yog'i jilg'a, jilg'adan so'ng bor ekan qiya. O'sha qiyalikda bir Ona Quyon yashar ekan. Yer ostiga chuqur qazilgan uyida beshta bolasi bor ekan. Ona Quyon har kuni mevalar olib kelar va shirin suti bilan bolalarini boqar ekan. Bolalari ham sakraydigan bo'lib qolibdi. Ayniqsa, bit-tasi juda ayyor va sho'x ekan. Ona Quyon dalaga ke-tayotganida bolalariga qo'shiq aytarkan:

Yurmangiz aslo loyda,  
Uyimiz pana joyda.  
Sabzi va o't keltiray,  
Oyoqqa juda foyda.

So'ng bolalarini uydan uzoqqa ketmasliklarini tayinlar ekan.

Bir kuni Ona Quyon dalaga ketganidan so'ng, Ayyor Quyoncha ham tepaliklardan oshib uzoq-uzoqqa borib qolibdi. Qarasa, anchagina quyonlar sabzi yeyayotgan ekan. Ayyor Quyonchani ham sabzi yegisi kelib: «Menga ham beringlar», degan ekan, quyonlar: «Huv, uzoqdagi bog'ni ko'ryapsanmi? Biz o'sha bog'dan zo'rg'a-zo'rg'a olib keldik. Sabzi yemoqchi bo'lsang, o'sha bog'dan olib kel, ammo, ehtiyot bo'l, u yerda Olapar It bor», deyishibdi. Ayyor Quyoncha noiloj bog' tomonga ketaveribdi va yo'lda: «Bordi-yu it quvlasa, o'tlarga o'ralib qolib, qocholmasam It tutib oladi», deb, yuragini vahima bosib, kelgan yo'liga qarab qochibdi. Sabzi yeyayotgan quyonlarni ko'rgach